

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 43 (66324)
2001 yil 26 oktyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

BOG'IMIZGA BIR KELING

Aziz nabiralarim, o'limidan avval uch nafar o'g'liga uzumzorga bir xum oltin ko'mganini vasiyat qilgan keksa bog'bon haqidagi rivoyatni yaxshi bilasiz-a? O'g'illarining ana shu oltinlarni qidirib, toklarning tagini kavlashgani, oltin topolmasalarda, mo'l hosil olganliklari ham yodingizdadir...

Bu rivoyatni bejiz eslatganim yo'q. Qijsadan hissa qilib, kimki astoydil mehnat qilsa, albatta uning

rohatini ko'rishini yana bir bor eslatib qo'ymoqchiman, xolos.

Men ham keksa bog'bonman. 1997 yilda «Haqiqat» jamoa xo'jaligi hududidagi axlatxonaga aylanib yotgan 7 gektarlik tashlandiq yerni olib, uni «Nuroniylar bog'i»ga aylantirish maqsadida ish boshladim. Dastlab farzandlarim, nabiralarimni yonimga olib, u yerni



Men Farog'at jabhalarini qamrab ololgan, Doniyorova Qashqadaryo sahifalaridagi ta'limga, viloyati, Koson tumanidagi sportga, adabiyot va X.Ermatov nomli maktabda san'atga, kasb-hunarga, mana 20 yildirki, yoshlarga ekologiya va salomatlikka oid ta'lim-tarbiya berib o'qimishli maqola va xabarlarini kelyapman. 9 - sinf bilan har bir bolali xonadonga kirib borayotgan «Tong

BIZ OBUNA BO'LDIR, SIZ CHI?

rahbarlik qilaman. O'zim yulduzi» zamon talablariga ham, o'quvchilarim ham to'la javob bera oladi. «Tong yulduzi» gazetasini Shuning uchun ham barcha sevib o'qiymiz. o'smir bolalarga bu nashrga Qo'shimcha darslarimizda obuna bo'lishlarini bir ustoz-undagi she'r va hikoyalarni murabbiy sifatida maslahat maroq bilan o'qib, fikr berardim. O'zimning yuritimiz, mushohada o'quvchilarim «Tong qilamiz. Ayniqsa, bolalarim yulduzi»ga 2002 yil uchun tengdoshlari tuzgan to'liq obuna bo'lishdi, siz- boshqotirma va chi? Hali ulgurmagan va krossvordlarni yechishni bo'lsangiz, shoshiling. xush ko'rishadi. Afsuslanmaysiz!

Farog'at
DONIYOROVA,
Qashqadaryo viloyati.

chiqindilardan tozaladik, tekisladik. Erta bahorda o'z hisobimdan poliz ekinlaridan ekdim. Dastlabki olingan daromadimizdan 110 ming so'mlik mablag'ni «Nuroniylar» jamg'armasi tuman bo'limiga topshirdim. Qolgan qismini bog' tashkil etishga sarfladim. Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi Shreyder nomli

xo'jalikdan 4 xil navdagi 1200 tup nok ko'chatini sotib oldim. Yoniga 100 tup tok (uzum), 75 tup anor ko'chatini ekdim. Oradan hech fursat o'tmay, mehnatlarim samara berdi. Ayni kuz kunlarida bog'imizga bir keling, nabiralarim sarxil mevalar bilan sizni mehmon qilishadi.

Keksa bog'bon
Abduhamid Qodirovning
gaplarini Ali

KO'CHIYEV yozib oldi.

Men qadimiy va go'zal Termiz shahrida yashayman. Hademay shahrimizning 2500 yilligini keng tantana qilamiz. Shu munosabat bilan ayni kunlarda keng ko'lamda bunyoqdorlik va obodonchilik ishlari olib borilyapti. YAqinda shahrimiz markazida «Bobur» va «Alisher Navoiy» nomli istirohat bog'lari qad rostladi. Moziydan so'zlovchi muzey qurilishi ham tugallanish arafasida.

Ayni kunlarda bizga

qo'shni bo'lgan Afg'oniston hududidagi mudhish voqealar sabab, yurtimiz haqida ham turli uydirmalar, mish-mishlar tarqatilyapti. Emishki, Termiz shahri aholisi uy-joylarini tashlab ketishayotganmish. Chet ellik sayyohlaru jurnalistlarning turmush tarzimiz bilan qiziqishlari boisi ham shunda ekan. Ular shahrimizdagi tinchlik, xotirjamlikni o'z ko'zlari bilan ko'rishyapti. Biz bolalar ham hech bir hadik, xavotirsiz yashab, o'qib yuribmiz. Darslardan bo'sh vaqtlarimizni maktabimizdagi bichish-tikish, kashtachilik, dutorchilik va raqs to'garaklarida o'tkazaypmiz. Yana, shahrimizning to'yiga hozirlik ko'ryapmiz.

Zulfiya BOYMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
5-o'rtta maktabning 4-sinf o'quvchisi.

Ayni kunlarda terrorizm va giyohevandlikning o'chog'iga aylanib qolgan Afg'onistonda ro'y berayotgan mudhish voqealarni nafaqat kattalar, balki biz bolalar ham diqqat bilan kuzatib boryapmiz.

Chunki, «Qo'shning tinch, sen tinch», degan naql bor. U yerdagi notinchliklar qo'shni davlatlarga

ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Qariyb 22 yildan buyon urushlarni boshidan kechirib kelayotgan afg'on xalqiga, ayniqsa, bolalariga juda qiyin bo'lyapti. Lekin Afg'onistondagi tog'u toshlarning oralariga «uya» qurib olgan terrorchilar tag-tomiri bilan yo'q qilinmasa, u istagan davlatiga tahdid solishi, yurt tinchligini buzishi, begunoh odamlarning o'limiga sababchi bo'lishi tayin. Chunki terrorizmning Vatani, millati bo'lmaydi. Shuning uchun ham unga qarshi ma'lum bir davlat emas, barcha mamlakatlar kurashishlari lozim. Shundagina nafaqat qo'shnimiz, balki butun dunyoda tinchlik bo'ladi.

Ahror AHMEDOV,
Toshkentdagi S.H.Sirojiddinov nomli
akademik litsey o'quvchisi.

O'ZIMIZNING NASHRIMIZ

Sinfimiz o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini orziqib kutishadi. Qo'lga olishimiz bilan undagi maqolayu boshqotirmalarni birgalikda o'qib, muhokama qilamiz. Ayniqsa, «Tengdoshlarning ijodi», «Xatlar tegirmoni» bizni befarq qoldirmaydi. Chunki sinfimizda bo'lajak shoir va shoirlar juda ko'p. Gazeta sahifasi orqali ko'plab do'stlar orttirdik. Hozir ham ular bilan xat yozishib turamiz.

Sinfimiz bilan kelishib, yangi yildan «Tong yulduzi» gazetasiga yillik obuna bo'ldik. Istardikki, tengdoshlarimiz ham bolalar gazetasiga obuna bo'lishni yodlaridan chiqarishmasin.

Sevara YOSHUZOQOVA,
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
23- maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.

SAQICH SOTIB OLISHDI...

Sinfimizda yaxshi bir ana bor: har yili barchamiz 100 so'mdan pul to'plab, «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lamiz va bir yil davomida uning har bir sonini birgalikda o'qib boramiz. Shuningdek, o'zimiz ham she'r, maqola, xabar va lavhalarimiz bilan qatnashib turamiz. Chizgan rasmlarimiz gazetada chop etilsa, sevinchdan boshimiz ko'kka yetadi.

Bu yil ham shunday bo'ldi, 2002 yil uchun gazetaga obuna bo'ldik. Lekin 2-3 nafar sinfdoshlarimiz pul qo'shishmadi. Tanaffusda esa shu arzimagan 100 so'm pullariga pista, qurut, rezinali saqich sotib olishdi. Ularning bu qilmishidan xafa bo'lib ketdim: «Bu narsalarni bir zumda yeb qo'yasizlar. Safimizga qo'shilganingizda yil davomida qancha ma'naviy ozuqa olardingiz», deya tanbeh berdim. Do'stlarim meni to'g'ri tushunishdi... Siz-chi, aziz tengdoshlarim, fikringa qo'shilasizmi?

Mahmudjon AZIMOV,
Toshkent shahridagi 169-maktabning 5-sinf o'quvchisi.


USTOZ OTANGDEK ULUG'

Bu so'z zamirida olam olam ma'no mujassam. Ustoz sha'niga qancha ko'p shirin so'z aytmaylik, bari kamlik qiladi.

Bizning Toshkent pedagogika kollejimizda dars berayotgan har bir ustozning shirin so'zlariyu o'z navbatida qattiqqo'lligidan o'rnak olsa arziydi.

Ana shunday ustozlarimizdan biri Ozoda opa Omonovadir. Ozoda opa nafaqat ustoz balki biz talabalar uchun ona hamdir. Ilohim mehribon ustozlarimiz safi kengayaversin. Ularga sog'lik, omonlik hamroh bo'lsin.

Dilnoza BOTIROVA,
Toshkent pedagogika kollejining
2- maxsus «D» guruhi talabasi.



MUCHAL TO'YING MUBORAK, TILIM!

Mirobod tumanidagi kasb-hunar kollejida O'zbek tiliga Davlat maqomi berilganiga 12 yil to'lishi munosabati bilan «Muchal yoshing muborak, tilim» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. «O'zbekim» va «Qalqon» guruhlari o'zaro bellashdilar. Tilimiz haqida she'rlar o'qidilar, maqolu hikmatli gaplarni kim ko'proq bilishi borasida bahslashdilar. Har ikkala guruh qatnashchilari bilimdonu zukkolikda bir - birlaridan qolishmadilar. Shu bois ham hakamlar hay'ati bir ovozdan ularning barini g'olib deb topdi.

Gulnoza MAMAJONOVA,
Toshkent shahridagi 294- maktab o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



ILM OLISHGA BOYLIK KERAKMI?

Assalому alaykum, «Tong yulduzi» tahririyati. Senga ilk bora maktub yo'llayapman.

Ismim Vazira. Oddiygina oilaning qiziman. O'qishlarim yaxshi. Algebradan bo'shroqman, biroq adabiyotning ashaddiy muxlisiman. Kelajakda jurnalist bo'lishni xohlayman. Ustozim olimpiadaga «sen borasan», degandilar. Men ko'plab adabiyotlarni o'qib, o'zimcha tayyorlanib yurgandim. Biroq ustozim aytgan gaplaridan qaytdilar. Bir boy opaning farzandi olimpiadada qatnashishini aytganlarida, «men-chi, ustoz», deb so'radim. Ustozimiz esa «Birinchidan uni o'qishga kirishga qurbi yetadi, ikkinchidan uning oilasi oliy ma'lumotli, seniki esa...» deb ko'nglimni qattiq og'ritdilar.


Aziz «Tong yulduzi». Qani, ayt-chi, ilmga boylikning nima daxli bor? Bilimdon bo'lsa-yu boy bo'lmasa o'qishga kirolmaydimi?

Vazira ISOQOVA,
Farg'ona viloyati, Uchko'prik
tumanidagi 5- maktabning
9- sinf o'quvchisi.

SPORT BILAN DO'STLASHSAK

«Sport - salomatlik garovi» deb bejiz aytilmaganiga yana bir bor amin bo'ldim. Avvallari uyqudan ko'zimni ochgim kelmasdi. Ko'pincha dars paytlarida ham o'zimni qandaydir lanj his qilardim. Sport bilan muntazam shug'ullana boshlaganimdan buyon hammasi o'zgardi. Oyimning uyg'otishlarini ham kutmay, barvaqt uyg'onaman. Kayfiyatim ham doimo a'lo bo'ladi. Bularning bariga sabab, maktabimizda sport bilan shug'ullanishimiz uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o'quvchilarning jismoniy chiniqishlariga berilayotgan jiddiy e'tibor, qolaversa, jismoniy tarbiya fani o'qituvchimiz Zuhra opa Rahimovaning o'ta talabchanliklari deb bilaman.

Maktabimizda tez-tez sport musobaqalari o'tkaziladi. Basketbol, shaxmat-shashka, yengil atletika, futbol kabi to'garaklar muntazam faoliyat ko'rsatadi. Yaqinda TSHXTBning tashabbusi bilan maktab o'quvchilari orasida sportning 11 yo'nalishi bo'yicha o'tkazilayotgan «Umid nihollari - 2001-2002» musobaqalarining maktab bosqichini o'tkazdik. Ushbu tadbirga Zuhra opa hamda musiqa fani o'qituvchimiz M.B.Badalova boshchiligida bir oy davomida puxta hozirlik ko'rdik.



Nihoyat, orziqib kutilgan kun ham keldi. Maktabimiz hovlisi bayramona bezatilgan, devorlarga yurtboshimizning «Sport odamni mard, matonatli, bardoshli qilib tarbiyalaydi», «Farzandlari sog'lom yurt qudratlidir», «Hech bir narsa mamlakatni sportdek tezda dunyoga mashhur qila olmaydi» kabi sportga oid fikrlari yozib qo'yilgan.

chiqib, barchamizni sport bayrami bilan qutladilar. Maktabimiz sportchilari ishtirokidagi akrobatik mashqlar, badiiy chiqishlarni tadbirimizga mehmon bo'lib kelgan



barchamiz keng davra olib, qo'limizni ko'ksimizga qo'ygan holatda, davlatimiz madhiyasini ijro etdik. Olimpiada olovini maktabimizning 6-sinf o'quvchisi Rossiyada, Kiyevda jahon chempioni bo'lib kelgan Akmal ismli bola yoqdi. So'ngra maktabimiz rahbari Xava opa Hamedova so'zga

Sobir Rahimov tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri A.R.Rahmatullayev,

mutaxassislari M.S.G'alixo'jayeva, V.A.Kuzmenko, 16-sport maktabi direktor muovini A.A.Kolubinlar ham zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Shundan keyin tadbirimizning asosiy qismi - sport bellashuvlari boshlandi. Futbol bo'yicha 5-7-sinflararo o'tkazilgan musobaqalarda birinchi o'rin 7 - «B» sinfga, ikkinchi o'rin 5- «B» sinfga, uchinchi o'rin esa 6 - «Z» sinfga nasib etdi. 8-10-sinflar orasidagi bellashuvlarda esa oldingi o'rinlarni 8- «D», 10- «A» hamda 9- «B» sinf o'quvchilari bo'lishib olishdi. Shaxmat bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda g'olib chiqqan o'quvchilar qatorida sinfdoshimiz Jahongir Toirovning ham borligi bizni juda quvontirdi.

Tadbirimiz yakunida unga homiylik qilgan «Beruniy» mahallasi vakillari tuman musobaqalarida 1-o'rinni olib, tumanlararo o'tkaziladigan musobaqalarga yo'llanma olgan J.Toirov, A.Tursunov, N.To'xtasinov kabi sportchilarimizga omadlar tilab, esdalik sovg'alarini topshirdilar.

Nargiza AKBAR qizi,
Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi
249-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Yoshlar telekanalidan beriladigan «Zakovat» o'yinini zukko o'quvchilar ham diqqat bilan kuzatib boradi. Yaqinda biz ham maktabimizda ana shunday o'yin - tashkil qildik. O'yin boshlanishidan oldin barcha savollar birin-ketin o'qila boshlandi. Qatnashuvchilar juda hayajonda. Shunday bo'lsa-da, bahs va munozaraga berilib ketishdi. O'yin biz kutgandan ham ziyoda bo'ldi. Eng yaxshi savol bergan muallifga sovg'a ham berildi. O'yin yakunida ustozimiz Gulshod

To'xtayeva shunday dedilar:

- «Zakovat» o'yinimiz juda yaxshi o'tdi. Bundan keyin ana shunday

bilimdonlar o'yini har haftada o'tkazilib turiladi. Xohlovchi o'quvchilar bo'lsa, marhamat. Guruh tuzib, ishtirok etishlari mumkin, - dedilar ustoz.

Shunda atrofdagi o'quvchilarning ko'pchiligi bellashuvga tayyor ekanliklarini aytishdi.

Biz o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga o'z hissalarini qo'shayotgan ustozlarimiz G'afur aka Mirzayev, Gulshod opa To'xtayevalardan juda xursand bo'ldik.

Muhtarama KOMILOVA,
Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi
7- maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

"ZAKOVAT" BILIMDONLAR O'YINI

MUZQAYMOQ UCHUN CHAQIMCHILIK QILMAYMAN

yoki spektakldan so'nggi xulosa



YAXSHILIK G'ALABA QILADI

Men spektaklni miriqib tomosha qildim. Mushuk rolini ijro etgan aktyor Yodgora opa Ziyomammedovadan dastxat ham yozdirib oldim. Spektakldan shuni tushundimki, shafqatsiz, rahmsiz bo'lish yomon odat ekan. Ayozzoda Boychechakni muzlatib qo'yimoqchi bo'ldi. Bahor kelishini xohlamadi.

Ammo Boychechak Navro'zni topdi, unga do'stlari yordam berdi.

Men spektakldan so'ng shunday she'r yozdim:

Bahoroyga qildi Ayozzoda yomonlik,
Baribir g'alaba qildi yaxshilik.
Bahoroyni Ayozzoda to'xtatolmadi,
Navro'zga ham hukmini o'tkazolmadi.

Sardor ERKINOV.



YOLG'ON GAPIRIB UYATGA QOLMAYMAN

Menga xo'tikcha, sigir, olapar yoqdi. Ular Navro'zni qutqarishga yordam berishdi. Spektakldagi Ayozzoda va mushuk menga yoqmadi. Chunki Ayozzoda mushukka muzqaymoq bergani uchun Qoramosh, Navro'z bu yoqqa ketdi, deb Boychechakning do'stlarini aldadi. Oxirida o'zi yolg'onchiligi uchun dumidan ajrab qoldi. Mushukday kulgili ahvolga tushmaslik uchun yolg'on gapirmaslikka, xiyonat qilmaslikka o'rgandim. Teatr xodimlari gaplaridan esa jamoat joylarida o'zini qanday tutish kerakligini bilib oldim. Albatta yana teatrqa boraman, deb o'ylayman.

Ziyoda ISMOILOVA.

YAXSHILAR NIYATIGA YETARKAN

Do'stiga xiyonat qilish, chaqimchilik, yolg'on gapirish yomon ekanligini bilardim, natijasi qanday bo'lishini esa spektakldan bilib oldim. Ayozzoda Navro'z va Olaparni botqoqlikka botirib yomonlik qildi, eshak va xo'tikcha ularni botqoqlikdan tortib oldi. Boychechak, Navro'z yaxshi bo'lgani uchun niyatiga yetdi, biz ham yaxshi bo'laylik.

Furqat HIKMATOV.

Bu yil boshlang'ich sinfni tugatib, o'rta bo'g'inga o'tgan 5- sinf o'quvchilarini o'qityapman. Chorak davomida o'quvchilar ona tili va adabiyotidan 2 soat davomida nazorat insholari yozishi rejalashtirilgan ekan.

Boshlang'ich sinfdan chiqqan o'quvchilar uchun birdan insho yozish oson emas, chunki insho- bu ijodiy fikrlashni, mustaqillikni talab etuvchi yozma ish turi. Yaxshisi, o'quvchilarni «Yosh tomoshabinlar» teatriga olib borib, taassurotlarini yozdira qolay, deb o'yladim.

Yaqinda «Navro'z va boychechak» spektaklini mazza qilib tomosha qildik. Teatr jamoasining «Sizlarni kim yubordi?» degan savoliga o'z ixtiyorimiz bilan kelganimizni aytgandik, ular suyunib ketishdi.

Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal, deyishadi. O'quvchilarning barchasi spektakldan mamnun ekanliklarini, insho so'ngida o'zlariga qanday xulosa chiqarganlarini bildirganlar. Sizlar ham spektaklni borib ko'ringlar, bundan albatta ma'naviy ozuqa, madaniy hordiq, asosiysi mustaqil fikrlashni o'rganasiz. Spektakl sizlarga albatta ma'qul bo'ladi. «Unday bo'lma, bunday bo'l», deyaverish sizni juda bezdirgandir. Ko'rib xulosa chiqarsa, fikrini erkin bildirib insholar yoza olsa, bu biz ustozlarning ham yutug'idir.

Aziz ustozlar, o'quvchilar. «Yosh tomoshabinlar» teatri sizlarni kutmoqda. Quyida, tengdoshlaringizning spektakldan so'ng yozgan insholari bilan tanishing.

Mahmuda VALIYEVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274- maktab o'qituvchisi.

DOIM QO'LNII YUVISH KERAK EKAN

Spektaklda chiyabo'rilar ham ishtirok etadi. Ular mehnat qilmay qorin to'ydirishni o'ylashadi, bu menga yoqmadi. Lekin bir gapi yoqdi: Dudaq chiyabo'ri Qichima chiyabo'riga «Qo'lingni yuv» deydi. Nega desa, qichiding-ku, deydi. Ba'zilar burun yoki qulog'ini qashib, qo'lini yuvmaganini ko'rganman. Hamma kasallik iflos qo'ldan o'tishini chiyabo'rilar bilarkanu ayrim tengdoshlarimiz bilishmaydi. Spektakldan yana boshqa ko'p narsalarni o'rgandim.

Muhabbat SULTONOVA.

IT MUSHUKNI NEGA QUVLAYDI?

Spektakldan xuddi shuning sababini bilib oldim. Mushuk muzqaymoq uchun do'stini sotadi, yovuzlik ramzi bo'lgan qish - Ayozzodaga boychechakni muzlatib qo'yishiga yordam beradi. Bundan jahli chiqqan olapar mushukni quvlab ketadi. Demak, vafodor it mushukni sotqinligi uchun kechirmay quvlab yurarkan.

Jamoliddin TOIROV.



MAYSALARNI AVAYLASH KERAK

Xo'tikcha va onasi «Maysalarni mazza qilib chaynaysiz» deb ashula aytdi. Bahor kelishi bilan o't-o'lanlar chiqa boshlaydi. Biz ularni bosib yuramiz. Bu maysalar puli yo'q, magazinga borib ovqat sotib olmaydigan, qozoni yo'q xo'tikchalar uchun tayyor ovqat ekan. Endi maysalarni bosmaymiz, o't-o'lanni ko'paytirib, ko'kartirib xo'tikchalar och qolmasligiga harakat qilamiz.

Gulnoza JUMABEKOVA,
Durdona XASANOVA.



QIZIQARLI EMAS DEB O'YLOVDIM

4-sinfda ham qo'g'irchoq teatriga borgandik, uncha qiziq bo'lmagandi. Bu safar spektakl juda yoqdi. Yomg'ir yog'ishini xohlab aytgan «Sust xotin» ashulasi, «Bu olamda anqayma» deb chiyabo'rilar aytgan ashulani qarsaklar chalib eshitdik. Aktyorlar zo'r o'ynaganlari uchun bitta ham o'rtog'im qimirlamay diqqat bilan tomosha qilishdi.

Sigirning qorniga 4 ta baklashkada sut ilib qo'yishibdi. «Qoyil» dedim.

Chiyabo'ri, Qoramol, Boychechakning ham kiyimlari juda yoqdi. Tikkan chevarga «Balli» dedim.

Muxlisa AKBAROVA.

TAHRIRIYATDAN

Aziz bolajonlar, mana, Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-maktab o'qituvchisi Mahmuda Valiyeva va shu maktabning 5-»A» va 5-»V» sinf o'quvchilarining insholari bilan tanishdingiz. Siz qanday insholar yozyapsiz, teatrlarga boryapsizmi, borgan bo'lsangiz taassurotlaringiz qanday? O'ylaymizki, bizga shular haqida yozib yuborasizlar.



DO'STLARIMNI MUZQAYMOQQA ALMASHMAYMAN

Ayozzoda Qoramoshga bitta muzqaymoq berib, Boychechakka yordam bermaslikka ko'ndiradi. Xo'tikcha, Olapar, sigir Boychechakka, Bahoroyga yordam berganlaridan xursand bo'ldim. Men ham ulardek do'stlarimga sadoqatli bo'lishga ahd qildim. Hech qachon do'stlarimni arzimagan pulga, muzqaymoqqa almashmayman, deb xulosa chiqardim.

Fayyoz XABIBOV.



(Boshi o'tgan sonda)

XV asr oxirlari va XVI asr boshlarida siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha bo'shashgan O'rta

Osiyoda mahalliy hokim va podsholar orasidagi taxt talashishlar, xalq ommasining og'ir ahvolga tushib harakatga kelishi qo'shni ko'chmanchi o'zbeklarga qo'l kelgan edi. Temuriylar sulolasining oxirgi hokimlaridan biri Bobur Dashti qipchoqdan kelgan qudratli Shayboniyxon boshchiligidagi ko'p sonli qo'shinlar oldida o'zlik qilib chekinadilar. Shunday qilib, hozirgi O'zbekistonning

AJDODLARDAN FAXR ETAR QALBIM

asarlarida uchramiz. Keyin Rashididdin solnomalarida Jaloliddinning harbiy navkarlaridan biri ham «o'zbek» ismi bilan tilga olinadi. Atoqli tarixchi Hamidulloh Kazvinii (XV asr) Oltin O'rda xoni O'zbekning lashkarlarini «o'zbeklar» deb nomlaydi, tegishli o'lkani esa «Mamlakati Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylar o'zbeklarni Oltin O'rda nomi bilan bog'liq degan fikrni bildiradilar. Boshqa

Ko'pgina manba va rivoyatlarda o'zbeklarning genealogiyasi (shajarasi) haqida gapirilib, o'zbek xalqi 92 urug' (qabila) dan tashkil topgan deyiladi. Asli bu raqam haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbeklarning kelib chiqishi kabi ularning etnik tuzilishi ham nihoyatda murakkab va ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida bir necha marta o'zgarib ketgan. Ayniqsa, turk va boshqa qabilalar o'rtasidagi hokimiyat va yer-mulk uchun tuganmas o'zaro kurashlar, katta qabilalar tomonidan mayda urug' qabilalarning bo'ysundirilib, ba'zan yirik elatlarga singib ketishi, buyuk ko'chishlar va qabilaviy birikmalarning paydo bo'lishi kabi etnik jarayonlar ayrim elatlar nomlarining ham o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan.

Mang'it va qozoq qabilaviy birikmalari va Shayboniylar davlatining inqirozida keyingi turk qabilalar tarkibida bir nomdagi turli qabilalar: qipchoqlar, qo'ng'irotlar, naymanlar kabi yirik elatlarning umumiy nomi «o'zbeklar» deb yuritilgan. Bu to'g'rida Ro'zbehon Isfahoniy «Mehmonnoma Buxoro»da yozib, barcha shayboniylar va hatto mang'itlarni umumiy bir nom bilan «o'zbek xalqi»

saroy, ming, qirq, yuz, loqay, qo'shchi, nayman, chimboy, shunqarli, qovchin, chiroyli, iyjon, salur, bayri, arg'in, burkut, barlos, jaloir, qarluq, nukus, uyshin, o'tarchi, qatag'on, kulan, arlat, qo'shoyoqli, buyruk kabi etnonimlar o'zbek va boshqa O'rta Osiyo turkiy elatlarining xalq sifatidagi shakllanishida muhim komponent hisolanadi.

Mazkur etnonimlarning ko'pchiligi hozirgacha, ayniqsa Janubiy O'zbekistonda saqlanib kelgan. Ammo ularning o'zbek

ilgariroq kelgan Dashti qipchoq o'zbeklarining o'troq turmush tarziga o'tganligi to'g'risida Mahmud ibn Vali o'z asarlarida xabar beradi.

O'zbek urug' qabilalarining nomlari, ayniqsa etno-toponimlar, ya'ni qishloqlar va mahallalar hamda geografik nomlarda yorqin ifodasini topgan. Ko'p mualliflar urug' qabilalarning katta shaharlarida hamda muayyan mintaqada joylashganliklarini aytib o'tadi. Masalan, V.L.Vzyatkin, V.V.Bartold, A.K.Pisarchik, K.Shoniyozovlar ayrim qabilaviy atamalar berilgan o'zbek qishloq va mahallalarini

QARI OT

Bilgilki, kishi kuchga to'lib shuhrat topgan paytlarida ham o'zidan ketmasligi lozim, zero, ko'pchilikka uqubat to'la keksalik nasib etadi.

Qari otni juvozkashga sotdilar Juvozkash otni juvozga qo'shib haydarkan, ot mahzun nola chekdi: «Darig'o, poygalarda chopgan paytlarim qanchalar keng doirada aylanardimu endi nechog'li tor doirada aylanaman-a!»

SO'QIR KISHI

So'qir bir kishi qo'lga tutqazilgan har qanday jonivorni siypalab ko'riboq nimaligini aytib berguchi edi. Ittifoqo, bir kuni uning qo'lga bo'ri bolasini tutqazdilar. So'qir uni siypalagan ko'yi o'yanchan dedi: «Bilmadim, qo'lmdagi bo'ri bolasimi, tulkivachchami, ammo aniq bilamanki, uni qo'ylarga qo'shmagan ma'qul».

Alqissa, kishilarning badfe'llari aftangoridanoq ko'zga tashlanib turadi.

Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida, Xorazm vohasi va boshqa tumanlarda Shayboniyxon bilan kelgan «o'zbek» nomli turkiy tildagi qabilalar ham o'rnasha boshlaydi va mahalliy aholi bilan aralashib ketadi. Ular yangi zamindor (feodal)larni barpo etib, ko'p yerlarni zo'rlab, musodara qilib olganlar, bir qismini lashkarga tarqatib temuriylar kiritgan boyliklarni qo'lga kiritganlar. Shunday qilib, yuqori harbiy tabaqalar oliy siyosiy hokimiyatini o'rnatganlar. O'sha davrda o'zbek tilida adabiy va tarixiy asarlar keng tarqaladi («Shayboniyнома», «Nusratnoma», «Abdullanoma», «Alpomish» kabilar).

«O'zbek» atamasi ilmiy jihatdan hali to'liq aniqlanmagan. Dastlab bu so'zni arab muallifi Usam ibn Munhiz (XII asr oxirlarida)

manbalarga qaraganda, XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Abulxayrxon va uning nabirasi Shayboniyxon qaramog'idagi barcha qabila va elatlar birikmasiga, umuman «o'zbeklar» deb nom berilgan.

Abulg'ozining «Shajarai turk»ida yozilganidek, Oq o'rda podshosi To'qtag'uxon o'lgandan so'ng o'n uch yoshli O'zbekxon taxtga kelgan. U otabobosining dasturi bilan toki elni zabt etib, har kimni martabasiga loyiq hurmat qilib, in'omlar berdi. Barcha xalq uch

sohibi davlatning sababindin sharafi islom musharraf bo'ldilar. Andin so'ng, Abulg'oz ta'rificha barcha Jo'chi elini o'zbek eli dedilar.

UQUVSIZ JUNTAROSH

Uquvsiz bir kishi qo'yni junini qirqayotgan edi. Azobdan joni halqumiga kelgan qo'y unga dedi: «Birodar, senga jun kerak bo'lsa, qaychini balandroq tutgin, yo'q, agar go'sht kerak bo'lsa, hadeb jonimni qiynamasdan so'ygin-da, qo'y!» Alqissa, chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.

deb nomlaydi. Demak, turli xildagi urug'-qabilaviy turkumlardan tashkil topgan etnik guruhlardan mang'it, qo'ng'iroq, qiyot, qipchoq, qang'li, do'rmon, kenagas,

etnogenezidagi ishtiroki bir xil bo'lmagan. Bu urug' qabilaviy birikmalar va elatlarning maishiy turmushi, urf-odat va marosimlari, joylanishi va ijtimoiy-siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta asr mualliflari Mahmud Qoshg'ariy, Xondamir, Hofizi Tanish Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Narshaxiy, Abulg'oz va boshqalarning asarlarida keltirilgan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga qaraganda, XV asr boshlarida Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan turkiy qabilalarning ko'pchiligi o'troq bo'lib joylashgan. Keyingi asrda

tilga oladilar. Farg'ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlardan Marg'ilon va Andijonda yuzlab mahallalar bo'lib, ularning ancha qismi etnonimlar bilan bog'liq bo'lgan.

Yangi davr (XV-XIX asrlar) davomida o'zbeklarning etnik shakllanishi davom qilib, o'zlarining urug'-qabilaviy nomlarini to'bizning asrimiz boshlarigacha qisman saqlab kelganlar. Ular nafaqat etnik jihatdan, balki turmush tarzi va ijtimoiy tuzumi bilan ham o'zaro bir oz farq qilganlar. Ayrim o'zbek qabilalari o'troq dehqonchilikka to'la o'tmagan ko'chmanchilik xo'jaligi va turmush an'alarini saqlab, yarim o'troq holatda yashaganlar. Ular tillaridagi (shevasidagi) farq jihatdan ancha ajralib turganlar.

(Davomi bor).

Sahifani Abduhamid ABDUG'AFFOROV tayyorladi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)


Ammo sho'ro hukumati o'zi istamagan holda «Hujum» tufayli o'zbek ayollari ko'p yillik uyqudan ruhan uyg'ondilar va ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi cheklanishlariga barham berilib, ma'lum ma'noda faolliklarini, erkinliklarini va tengliklarini tiklab oldilar. Ularga o'qish, bilim va malakalarini shakllantirish uchun imkon yaratildi. Xotin-qizlar orasida maorif, madaniyat, fan, san'at, tibbiyot va ijtimoiy turmushning boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi ziyoli ayollar toifasi vujudga keldi.

Bora-bora xotin-qizlarning ijtimoiy faolliklari kuchayib, ular zavod-fabrikalar, qurilishlar, kolxoz va sovxozlarga ham keng jalb etila boshladilar. Shu tariqa, jamiyatda xotin-qizlarning faoliyatiga ko'ra yana bir qatlami - ishchi-deh-qon xotin-qizlar qatlami paydo bo'ldi.

20 - yillarning oxiriga kelib, ayollar va erkaklarning mehnatini tenglashtirish g'oyasi avj oldi. Xotin-qizlarni ishlab chiqarishning barcha sohalariga faol jalb etish boshlandi. Aksariyat partiya va sovet rahbarlari O'zbekiston va qo'shni jumhuriyatlarda ko'plab ishchi kuchi yetishmasligini xotin-qizlar hisobidan to'ldirishni taklif etdilar. Jumladan, qurilish ishlarini ayollar zimmasiga yuklash mumkin, ular g'isht terish va tashishni, duradgorlikni uddalay oladi, degan xulosa chiqarildi. Metallni qayta ishlash sanoatiga jalb etiladigan ishchilarning 15 foizini, 700 ming shoferning 50 foizini, 27000 traktorining 20 mingi xotin-qizlardan iborat bo'lishi kerakligi rejalashtirildi. Bunday «teng huquqlilik» oqibatida 1939 yilga kelib, ayollar erkaklar bajaradigan

ishning 50 foizi egallashdi. Shu yillarda O'zbekiston va Turkmanistonning paxtakor tumanlarida yashovchi ayollar ishchi kuchining 80 foizini tashkil etgan. Shu asnoda xotin-qizlarning tabiiy fazilatlarini, ayollik xususiyatlarini unutila bordi.

BIZNING AYOLLAR



Ayolning, eng avvalo, ona ekanligi, kelajak egalari bo'lgan yosh avlodning tarbiyachilari ekanligi xotiradan ko'tarildi. Natija shu bo'ldiki, ayol ishdan erkak bilan baravar qaytadigan, bu ham yetmagandek, bozor-o'charni ham o'zi qiladigan, ro'zg'or tashvishlarini deyarli o'zi ko'taradigan bo'lib qoldi. Garchi mustaqillikkacha bo'lgan davrda xotin-qizlar orasida ko'plab davlat va jamoat arboblari, o'z kasbi doirasida og'ir mehnat quli bo'lib qola berdilar.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ayollar va oilani ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, davlatimizning mustaqilligini

Saida JO'RAEVA

mustahkamlash ishida ayollarning o'z o'rnini egallashlariga qaratilgan davlat siyosatining ustunvor yo'nalishlari belgilab berildi. O'tgan 9 yil mobaynida bu borada shu qadar ko'p ish qilindiki, MDHdagi va yaqin xorijdagi biron bir mamlakatda bunday ishlar amalga oshirilmagan.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 12 milliondan ziyod xotin-qiz istiqomat qiladilar. Sanoatda ishlovchilarning 48 foizini, qishloq xo'jaligida ishlaydiganlarning 40 foizini, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, fan va madaniyat xodimlarining 60-70 foizini, savdo, jamoat ovqatlanishi, maishiy xizmat sohalarida ishlaydiganlarning deyarli 50 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, bugungi kunda parlamentda ayollarning 18 vakili, viloyat, tuman, shahar darajasidagi rahbarlar orasida 300 dan ortiq xotin-qiz bor, shuningdek, vazir o'rinbosarlari, korxonalar rahbarlari o'rinbosarlaridan 17,5 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida o'qiyotganlarning 38 foizi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport, maorif, san'at va kinematografiya o'quv yurtlarida o'qiyotganlarning umumiy sonidan 48,8% xotin-qizlardan iborat!

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining yuzaga kelishi natijasida xotin-qizlarning iqtisodning nodavlat sektoridagi ulushi 65-72 foizga o'sdi. Tadbirkor, ishbilarmon ayollar qatlami paydo bo'ldi. Bundan tashqari, bugungi kunda barcha turdagi bozor rastalaridagi o'rnlarning asosiy qismini xotin-qizlar egallaganini ko'rishimiz mumkin.

(Davomi bor)

NAZARMAT

KO'CHAMIZ BOLALARI

Ko'chamizda bola ko'p,
Bekor qolsa o'ynar to'p,
Futbolchimas hammasi,
O'yinga yo'q havasi.
Eshik oldida turib,
O'tgan-ketganni ko'rib.
Qarovchi ham yo'q emas,
Bolalarga qo'shilmas.
Ko'chamiz ikki yoni,
Maysa, gullar maydoni,
Meva daraxtlar ham bor,
Pishiqlikda har bor,
Bolalardan u ozor
Tortar; tosh otarlar bor,
Shoh-shabbalar so'kilsa,
Mevalari to'kilar.
Bordir qaysar shum bola,
Yoqmas unga gul, lola.
Tortib, yulib qaraydi,
Sinmaganni buraydi.
Ochilganin uzadi,
Ko'cha ko'rkin buzadi,
O'zining eshik oldi,
Quruq yer bo'lib qoldi.
Hovlida ham guli yo'q.
Bundaylarning dili yo'q.
Bor ba'zi bir onalar,
Gulni uzsa bolalar.
Tikon kirsas kulishar,
Tomoshabin bo'lishar.
Ko'chamizning qizlari,
Odob, odat so'zlari.
Yurar chaqqon, ozoda,
Ko'cha, hovlisi toza.
Bor ba'zisi beparvo,
Bo'sh yuradi doimo.
Qarashmaydi onaga,
O'zin olar panaga.
Bobolarning so'zi bor,
Aylang unga e'tibor:
Bo'lsa ozoda shahring,
Gulday ochilar bahring.
Shuni so'zlar onalar,
Shuni o'ylang bolalar.
Ko'chamiz bolalari,
Bizlar yurt lolalari,
Bizning qadrdon shahar,
Ko'chamizdan boshlanar.
Obod, yurt chiroyligi,
U ham Vatan boyligi.

DADIL QADAMLARING MUIBORAK

Nastarin -
G'uncha
Boshi
Egilgan,
Pastarin.
Guldastaga,
To'lar quchoq,
Dastarin,
Nastarin...
G'uncha esa,
Asta-sekin
To'ka boshlar
Astarin.
Nastarin,
Sho'x
Nastarin.



xxx

Singan kosasini uzatadi gul,
Yirtiq etaklarin ochadi ko'kat.
Oqragan ko'zlarda yorishar mehr,
Yorilgan lablarda pichirlar hayrat.

Suv, suv...
Bo'lingan porali yer siynasidan,
Chopib chiqar nogoh, chumolilar tang.
Ulkan hayrat kabi tug'ilib qo'yib,
Hayotbahshlik singan tomir-sochlarga,

Munojat Abdullayeva xorazmlik yosh qalamkashlardan. Shovot tumanidagi 21-son umumiy o'rta ta'lim maktabining matematikaga ixtisoslashgan 9-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Nomzodi «Zulfiya» mukofotiga tavsiya etilib, tuman bosqichidan muvaffaqiyatli o'tdi.

Yaqinda she'riy mashqlarini jamlab, «Meni yondiradi olovsiz jimlik» deb nomlangan turkum qildi. Turkumning nomiyoq undagi she'rlar bezovta, notinch va yaxshi ma'noda isyonkor qalb mahsuli ekanidan darak beruvchidir. Sarbast usulida bitilgan she'rlar majoz, qofiya, qochiriq va ko'pma'nolik kabi fazilatlarga boyligi, tashbehlarning originalligi bilan she'riyat ixlosmandlarini befarq qoldirmaydi.

Munojat o'ziga nisbatan o'ta talabchan qiz. Mana shu talabchanlik va mahorat samarasi o'laroq, uning she'rlarida she'rxonni ham fikrlashga undovchi, hayratlantiruvchi va ma'lum ma'noda tarbiyalovchi timsollar bisyor.

Jiddiy adabiyot, jiddiy she'riyat bo'stoniga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan Munojatxonga ijodiy parvozlari tilab qolamiz.

Boltaboy BEKMATOV.

Suv, suv...
Kesakning ichidan kelar o'kirik,
Va yig'lab yuborar, yarim osmonga.
Neni parchaladi rangsiz yuguruk,
Nega to'zin soldi bu qattol mavjlar,

Suv, suv...


xxx

Hali uyg'onmagan tushimda kabi,
So'zim soyasidan cho'chiyman goho.
Yupanch bo'lar ba'zan iliq so'z,
Hissiyotining oltin shafag'i
Qulog'imga yoqut isirg'a..
Mayin bir iforni sezaman so'ngra,
Tandirdan uzilgan kulcha rang misol,
So'zlarning tafti bor, mavjli, muloyim

Ba'zan esa xayolim tortar,
Tuzlab, sho'rlab yotgan qaqqoq yer...

xxx

Duldul arg'umoqning
Izi kabi,
Hech qachon yozilmagan
Bu so'zsiz xatni men,
Hech qachon yoza olmayman
Mendan «ona»-deb yoz-degan
So'zni kutinglar va men,
Uning ikki qoshi orasida
Bitta chuqur ajin borligi,
Haqida
Yozib beray...
Siz uchun yozib beray men.
Ehtimol, bu ajin,
Eng teranroq daryodan teran...
Eng teran yerdanda kengdir!
Yulduz uchsa qolar ekan iz!
Kim edi u - osmonni,
Yagona pokiza chehra degan?!
Kim?..



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

- Hamdu sanolar bo'lsin!
- baravariga hayqirishdi
ulamolaru amiru sarkardalar.

Temur poygakda uning har so'zini qog'ozga tushirayotgan mirzoga yuzlandi.

- Men, Tangri quli Temur, buyuraman. Tumanboshi Qutlug' Temur!

- Shu yerdaman, sohibqiron!

- Dashti Qipchoqdagi hukmronligingni xayrli ishdan boshla. Knyazga uning ota meros mulkini qaytarib ber.

- Bosh ustiga, sohibqiron.

- Sen, Rus knyazi, - dedi Temur o'tkir nigohini sobiq Nijniy Novgorod va Suzdal knyazi Simeon Kirdyapaga qarab, - seni xafa qilgan Moskvaga mening nomimdan bor va shaharni egalla!

U nigohini yana

Qutlug'ga qaratdi.


- Men seni qipchoq yerlariga, Yoyiq va Don sohillariga hukmdor etib tayinlaganimni unutmay adolat bilan ish yurit. Rosti va rustiy!

- Kuch adolatda!!!

- Yashasin adolatparvar sohibqiron!

Qutlug' Temur va Simeon ta'zim ila chodirdan chiqqach, Mir Said Baraka o'rnidan turdi.

- Sohibqironning bugungi muruvvatlari menga choryorlaridan



TEMURGA SIG'INGAN KNYAZ

biri - xalifa Umar jannatmakon hazratlari davridagi bir voqeani eslatdi. Shahar hokimidan zulm

ko'rgan nasroniylardan biri xalifa Umardan najot izlab Iroqqa keladi. Yo'lda chanqab bir kulbaga qadam

guvaladagi xatni o'qib tiz cho'kadi. Guvalani yuzko'ziga surtib xalifa amri vijibligini a'yonlariga ma'lum

Hamdam SODIQOV

bosadi. Ichkarida bir chol loy qorib guvala yasayotgan ekan. U ko'zda .suv tutib, nasroniy chanqog'ini qondirgach, uning arzododini tinglaydi. So'ng xalifaning vaqtini olmay, o'zi uning hojatini chiqarishini aytadi. Guvalaga xat bitib nasroniyga beradi. Uni shaxsan shahar hokimiga eltishni uqtiradi. Nasroniy hayron bo'lib, uning aytganini qiladi. Hokim

qiladi. Shu daqiqadan boshlab nasroniy hokim qilib tayinlangani va o'zi shahardan bedarg'a etilganini aytadi. Nasroniy shundagina loy qorgan chol aslida xalifa Umar ekanligidan voqif bo'ladi.

- Ollohning karami keng.

- Ollohning shamshiri Temurbekka hamdu sanolar bo'lsin!

Temur safdoshlarining shodon qiyiqirlari tingach, qo'llarini ko'tardi.

- Ey, G'afur, ey rahim, ey jalol, ey karim, mening gunohlarimni o'z fazlu karaming ila kechirgin! Muhammad alayhis-salom va uning jami sahobalariga Tangri Taoloning salovatlari bo'lsin!

- Omin! - baravariga fotihaga qo'l ko'tarishdi sarkardalar, amiru ulamolar.

Mir Said Baraka xushovoz bilan tilovat qildi.

(Tamom)

CHIN DO'STLIKKA NE YETSIN?!

Hayotda har birimizning baxtli va baxtsiz kunlarimiz bo'ladi. Shunday damlarda yoru do'stlarimiz yonimizda bo'lishini xohlaymiz. Buning uchun esa o'zimizga chin do'st tanlay bilishimiz lozim. Chunki bu bag'ri keng olamga yaxshi ham, yomon ham, sofdilu g'arazgo'ylar ham sig'averarkan...

Bolalik onlarimizda doimo birga o'ynaydigan o'rtoqlarimiz shirinliklari, o'yinchoqlari bor bolalar bilan do'stlashib olishsa, uni



«sotqin» deb arazlab, o'ynamay ketaverdik. Lekin yoshimiz ancha ulg'ayib, yaxshi bilan yomonni farqlay oladigan bo'lganimizda, haqiqiy do'stimiz xiyonat qilsa, uni kim deb atash mumkin?..

Men yaqinda hattoki parrandalarda ham mehr - muhabbat, vafo degan tushunchalar borligiga guvoh bo'ldim. Hovlimizda «chiy-chiy»lashib yurgan jo'jjalarimizdan birini behosdan mushuk olib qochdi. Qolgan jo'jalar esa shunaqangi chinqirishdiki, ularni kuzatib, juda rahmi keladi. Jo'jalardagi mehr-oqibatga to'g'risi, juda havas qildim. O'z do'stiga hiyonat qiladigan insonlarda ham ularchalik sadoqat bo'lishini astoydil istadim.

Shunda «Bahor qaytmaydi» videofilmidagi Alimardon va Anvarning do'stligi yodimga tushdi. Ularning do'stligi nima uchun barbod bo'ldi? Alimardonning xiyonatkorligi tufayli, nafaqat do'stlik, balki sof sevgi va muhabbat ham barbod bo'ldi.

Men 50-60 yillardan buyon samimiy do'stlashib kelayotgan insonlarni bilaman, ularga havas bilan boqaman. Bunday umriboqiy do'stlik har birimizga nasib etsin.

Shahlo MUTALOVA.



ARALASH TEST

1. Xotira va qadrlash kunini belgilang:

- A. 9 mart.
- B. 1 may.
- S. 21 mart.
- D. 9 may.

2. Biz nimani oq oltinga qiyoslaymiz?

- A. Pilla.
- B. Qor.
- S. Paxta.
- D. Bug'doy.

3. Ibn Sino kim bo'lgan?

- A. Yozuvchi.
- B. Olim va shifokor.
- S. Shoir.
- D. Siyosatchi.

4. Hamma vaqt og'izda-yu hech ham yutib bo'lmaydi. Topishmoqning javobini toping:

- A. Lab.
- B. Hech nima.
- S. Til.
- D. So'z.

5. O'zbekistondagi eng uzun daryo?

- A. Amudaryo.
- B. Zarafshon.
- S. Sirdaryo.
- D. Norin.

6. Osmon - oftobi bilan, Odam — bilan Maqolni to'ldiring

- A. Aqli.
- B. Odobi.
- S. Zehni.
- D. Obro'yi.

7. Yerning yo'ldoshi nima?


- A. Quyosh.
- B. Yulduz.
- S. Oy.
- D. Yo'ldoshi yo'q.

8. Qaysi sport turiga ko'ptok kerak emas?

- A. Volleybol.
- B. Tennis.
- S. Shaxmat.
- D. Bilyard.


Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l
tumanidagi 2-o'rta maktab o'quvchisi.

BILIM OLING, FURSAT G'ANIMAT



Turkiyada Izmir'dagi «Dokuz Eylul» universitetining Turizm boshqaruvi fakultetida ta'lim oldim. U yerda turk va fransuz tilini mukammal o'rganib qaytdim. Shu yili Toshkent Davlat Texnika Universitetini bitirib, bakalavr diplomini oldim. Xullas, 1993 yildan buyon faqat ingliz tilida saboq oldim.

- Magistraturaga harakat



TexSistemaServis
Mukammallik sari

- Fransuz tilidan imtihon topshirdingizmi?

- Ha, endi fransuz tilida ham ingliz tilidek ta'lim olish maqsadim bor.

- Chet ellarda ko'p bo'lgan ekansiz.

Qiziqarli, esda qolarli voqealar ham sodir bo'lganmi?

- Amerikada bir oilada yashadim. O'sha oila mening chekinga tushganiga juda ham minnatdor bo'ldim. Rosa aqlli, bilimdon oila. Otasi G'iyos janoblari fizik-muhandislik bo'yicha professor. NACAda faoliyat olib boradi. Onasi Sanoatxonim ximiyadan professor. Ikkita farzandlari bor. Ular ham texnika bo'yicha kuchli talabalar. Amerikadagi eng nufuzli «MIT» texnik universitetida ta'lim olishadi.

Yana u yerda futbol guruhi tarkibida edim. Biz o'zaro musobaqalarda ishtirok etib, borgan sayin yuqoriga chiqdik. Shtatlararo o'yinda 2-o'rinni qo'lga kiritdik.

Ha, aygancha qiziq voqea sodir bo'lgandi, aytib beraymi?

- Albatta.

- Yuta shtati Meksikaga yaqin. Sold Leyk siti aholisining 25 foizi meksikaliklar. Maktabimizda 3000 nafar bola o'qirdi. Bir bola bir-ikki marta menga g'alati qarab qo'ydi. Keyin o'zidan-o'zi urishib ketdi. O'sha bola meksikalik edi. Bizni zo'rg'a ajratib qo'yishdi. Boshqa bir kuni maktab avtobusini poylab tursam, kimdir meni kutib turganini aytishdi. Borsam, haligi bola. Endi u o'quvchi formasida emas, haqiqiy bezorilar kiyimida: bo'ynida va qo'llarida qalin tros taqinchoqlar, charm kurtka, qora ko'zoynak...

Yoniga sekin yaqinlashdim. Qo'rqib ketganimdan reza-reza terga botib ketdim. So'ngra o'zimni

yaxshilab tanishtirdim. O'zbekistondan kelganimni, bir yildan keyin ketishimni tushuntirib, uzr so'radim. O'zicha o'ylab topgan nifoq asta-sekin ko'tarildi. Do'stona xayrlashdik.

- O'qishdan tashqari yana nimalar bilan mashg'ulsiz?

- 2000 yil may oyida SOROS tomonidan Toshkent bo'yicha tashkil etilgan universitetlararo Bahsda guruhimiz g'olib chiqdi. Shu yil iyulda O'zbekiston respublikasi miqyosida yutib, 1 sentyabrda MDH bo'yicha Issiqko'lda o'tkazilgan Bahs debatda 3-o'rinni oldik.



Milliy liboslarimiz ularga yarashdi.

Ular faqatgina ingliz tilida bo'lib o'tdi.

Yana sportga qiziqaman. Ayniqsa basketbol va stol tennisiga. Sportdan erishgan yutuqlarimni isbotlovchi sertifikatlarim bisyor.

- Mushtariylarimiz orasida sizga havas qilganlar, sizga o'xshamoqchi bo'lganlarga qanday maslahatingiz bor?

- Asosiy urg'uni bilim olishga qaratishsin. Zamon bilimni talab qiladi. 10 yoshdan 20 yoshgacha puxta bilim olish imkoniyatidan unumli foydalanishsa, marra ularniki. O'n yil juda oz fursat. Fursat g'animat. Mana, men nimaga erishgan bo'lsam, barchasi bilimim orqasidan.

O'z navbatida menga saboq bergan ustozlarimga tashakkur aytaman. Bizdek shogirdlar baxtiga omon bo'ling, azizlar.

Suhbatdosh

Muharrama PIRMATOVA.

Tanishing, tengdoshingiz - Sanjar ATAYEV 1980 yil 10 mayda Buxoro shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Otasi Jamshid Bekovich Buxoro ichki ishlar boshqarmasida uzoq yillar ishlagan. Hozir nafaqada. Onasi Sharipova Mohira Jo'rayevna Buxoro tashxis korxonasining rahbari. Singlisi Yulduz Buxoro Davlat Universitetining 3-kurs talabasi. Ukasi Jo'rabek Buxorodagi 19-maktabning bitiruvchisi. Bugungi kunda Sanjar «TEX SISTEMA SERVIS»da loyiha rahbari bo'lib ishlamoqda. Bank va kompyuter texnikasi bilan faoliyat olib boradigan ushbu tashkilot O'zbekiston bozorida 1997 yildan buyon ishlaydi. Faoliyatining yo'nalishi quyidagilardan iborat. Naqd pullarning operatsiyalari, ya'ni: banknot, tanga schetchiklari, O'zbekiston so'mining va AQSH dollarining aslini aniqlovchi detektorlar, banknotlarni vakuum asosida taxlovchi uskuna, valutalarning elektron tablosi, jahon pullarining katalogi; Kompyuter texnikasi: Kompyuter va uning komplektlari, printer va skaner, faks-modemlar, aloqa simlari, kserokslar, fakslar va kerakli jihozlar.


qilmaysizmi?

- To'g'risini aytsam, bilimimni sinash maqsadida «UMID» Prezident fondiga hujjatlar topshirgan edim. Imtihon va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, Fransiyadagi «Ex-Marseille» universitetining magistranti bo'lish baxtiga muayassar bo'ldim.

- Turizm sohasida faoliyat olib borsam deyman,- deydi Sanjar. Chunki bizda turizm endi rivojlanmoqda. Potensial, ya'ni imkoniyat esa juda katta. Misol uchun Fransiyani olaylik. Uning aholisi 70 mln. kishi, bir yilda 80 mln. turist keladi. O'zbekiston aholisi esa 24 mln. Bir yilda keladigan sayohatchilar soni 50 ming. Juda oz ko'rsatkich. Samarqand, Buxoro, Xiva, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar, osori atiqalar chet elliklar uchun bir mo'jizaday. Agar biz meroslarimizni yaxshigina reklama asosida xorijliklarga «ko'z-ko'z» qilgudek bo'lsak, sayohatchilar soni ham yuqori shkalani egallaydi.

- Negadir o'zbek tilida so'zlashishga qiynalyapsiz.

- Nimaga endi? O'zimning ona tilimku. Lekin gapingizda jon bor. Oxirgi besh yil O'zbekistondan tashqarida bo'ldim. 8-sinf gacha Buxorodagi 19-rus maktabida, yuqori sinflarni Buxoro turk litseyida tahsil oldim. 1995-1996 yillari AKSELS dasturi bo'yicha AQSHning Yuta shtatidagi Sold Leyk sitidagi maktabda, 1996-1999 yillarda




Diplomimni olyapman.

hikoya qildilar Gulnora opa.- Universitetda tahsil olib yurganimda ham Anvar aka Isroilov boshqargan «Bayot» to'garagiga qatnaganman. To'garagimizning har bir mashg'ulotiga iqtidorli ijodkorlarni taklif qilardik. Qamchibek Kenja, Erkin

A'zamov, Xayriddin Sultonov singari taniqli adiblarni ana shu davrada taniganmiz.

Uncha-muncha qog'oz qoralab yurganim bois 1995 yilda Farg'onada bo'lib o'tgan ijodkor o'qituvchilar anjumanida qatnashdim. Anjumanning

BIZNING TO'GARAK



KUNGABOQAR

Kungaboqar kimga boqar,
Boqib-boqib kimga yoqar?
Taram-taram, oltin qalam,
Qoshlarini kimga qoqar?
Sarv qomatin ko'z-ko'z etib,
Nur istabon kunga boqar.
Taram-taram, oltin qalam,
Qoshlarini unga qoqar.
Emib quyosh taftidan,
Sarxushlanib sehdidan,
Qonib zamin mehridan,
Pishib, to'lib, yetilib,
Ta'zim ila yerga boqar.
Katta-kichik barchaga,
Kungaboqar birday yoqar.
Barkash to'la mevasi,
Meni, seni, elni boqar.



Gulnora MUHAMMADYOROVA

QO'SHNI QIZGA

Ko'chamizda bir qiz bor,
Hammaga berar ozor.
Bilsam, Dilorom ismi,
Ismiga monand jismi.
Yoniga sekin bordim,
Ko'nglimni asta yordim:
- Seni suyub alqashgan,
«Dil orom» deb atashgan.
Agar bo'lsang dilozor,
Hamma bo'ladi bezor.
Bu odat juda yomon,
Tashlagin uni shu on.
O'ynamay qo'yishadi,
So'ramay qo'yishadi.
Yolg'izlikda unmaysan,
Hozir buni bilmaysan.
Keyin qiyin bo'ladi,
Hamma sendan kuladi.
Ona qizim, Dilorom,
Dilga bo'l malham, orom.
Issiq istarang kulsin,
Isming jismingda bo'lsin.

mahsuli o'laroq ijodkor o'qituvchilarning she'riy mashqlari jamlangan «Muborak damlar» to'plami sahifalaridan bir necha she'rlarim o'rin oldi... Darvoqe, Gulnora opa xalqimizning sevimli xofizi, akademik Yunus Rajabiyning nabirasi ekanlar. Xofizning 100 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan anjumanda ularning ismiga bag'ishlab yozgan mufashshahlarini o'qib beribdilar. Yunus Rajabiy hayoti va faoliyatining hali ko'pchilikka ayon bo'lmagan qirralarini to'plab, xotiralar ham yozganlar. Gulnora opaning hikoyalarini tingab o'tirgan o'quvchilar she'riyatning mufashshah uslubi haqida savollar berib, ularga batafsil javob oldilar, ijodlaridan namunalarni tingladilar.

Ustoz murabbiylarimiz orasida o'z kasbining fidoiysi bo'lgan, darслиklar bilangina cheklanib qolmay, qo'shimcha adabiyotlar, manbaalardan foydalanib, darslarni yanada qiziqarliroq, jonliroq olib borishga intiladigan ijodkor o'qituvchilarimiz talaygina. «Istiqlol umidlari» to'garagimizning bugungi mehmoni Gulnora opa Muhammaddiyorova ham ana shunday ustozlar jumlasidan. Hozirda «Jahon adabiyoti» jurnalida ishlash bilan birga maktabda o'quvchilarga «Odobnoma» fanidan saboq berib kelyaptilar. Darslarida o'zlari yozgan she'r, hikoya, ibratli hikmatlardan keng foydalanadilar.

- Men ham o'z ijodiy faoliyatimni siz kabi to'garaklardan boshlaganman,-deya

TILAK

Salom onajonim, O'zbekistonim,
Quchog'i serquyosh, tengsiz makonim!
Salom zilol suvlar, tabiat, salom,
Sizga jajji qizingiz yo'llaydi kalom.
Qutlayman chin dildan qutlug' o'n yoshing,
Taxtga - o'zing, tojga munosib boshing.
Toshkent deb nomlangan qadimiy Shoshing-
Namoyish ayladi qudrat, bardoshing.
Muborak, muborak, takror muborak,
Tanamdagi ruhim jonlanayotir.
Vujudimda jo'shar shodlikdan darak,
Ko'rkingga bor dunyo lol qolayotir.

Shohida MO'MINOVA,

Jizzax tibbiyot kolleji talabasi.

XOTIRA

Ma'yuslik pardasi xayol olamin,
Oppoq tuman kabi o'ragan mahal.
Yurakda g'oyiblar sehridan go'yo,
Una boshlayotir xafif bir nihol.
Xotira atalmish saltanat aro,
Bir zum sayqr aylagin, ey osiy banda.
Misli zulmat bosgan kechaday qaro,
Ko'ngil qasriga yoq nurdan alanga.

*Shahlo ARABOVA,
Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi
Berdi Niyozov nomli maktabning
11 - sinf o'quvchisi.*

Ertak

gullab, nishona beribdi. Kelasi yili hosilini ko'tarolmay shoxlari egilibdi. Odamlar uning atrofida girdikapalak bo'lib, mevalarini «Oh, qanday mazali-a?...» deya maqtab-maqtab yeyishibdi. Olma daraxtiga esa qayrilib ham qaramay qo'yishibdi...

BAHONA

- Doringni ichdingmi? - so'radi onasi betob yotgan o'g'lidan.
- Yo'q, oyijon, doringni shishasiga: «Og'zi yopiq holda saqlansin!» deb yozib qo'yilgan ekan.

NAJOT YO'Q

- Kasal yotgan o'qituvchisini ko'rishga faqatgina bir bolani kiritishdi. Boshqalar yo'lakda kutib turishdi. Nihoyat sinf boshlig'i ichkaridan chiqib, g'amgin ohangda:

Xandalar


- Hech qanday umid yo'q,-dedi.- O'qituvchimiz ertaga maktabga borarkan.

$2 \times 2 = 4$


- Bugun necha baho olding? - so'radi ona o'g'lidan.

- Bitta to'rt.
- Qaysi fandan?
- Matematika bilan fizikadan...

*Shahnoza OYDINOVA,
Alisher Navoiy nomli
Respublika nafis san'at
litseyining 10- «G» tarix sinfi
o'quvchisi.*



OLMA VA NOK



odamlar olmaning atrofida girdikapalak bo'lishar, hosilidan uzib yeyishar, nokning yoniga esa hech kim kelmas ekan. Bu holdan mag'rurlanib ketgan olma maqtana boshlabdi: «Ko'kka qarab bo'y cho'zganing bilan, odamlarga nafing tegmaydi. Shuning uchun ham hech kim yoningga bormaydi-da». Nok esa olmaning ta'na-yu dashnomlariga javob bermay, yerga boqibdi...

Nokka gapirgan gaplari uchun mulzam bo'lib qolgan olma yer chizib qolibdi.

Qissadan hissa shuki, inson qanchalik kamtar bo'lsa, uni shunchalik ko'klarga ko'tarisharkan.

*Dilyora ERKINOVA,
Shayxontohur tumanidagi
45-maktabning
5- «A» sinf o'quvchisi.*



Poytaxtimizdagi 169-maktabning 5-sinf o'quvchisi Nargiza Umarova ushbu suratini «Suvni asrash burchimiz», deya nomlabdi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvov SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 58.519 nusxada ofset usulida bosildi.
Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-2992
Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahifaladi.
Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08